

O'ZBEKISTON XALQ XOFIZI ESON LUTFULLAEV IJODIGA TAVSIF

Qutlug' Haydarov Hamdamovich

JDPU Musiqa ta'limi kafedrası stajor o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston xalq hofizi Eson Lutfullaevning milliy qo'shiqchilik san'atimizdagi o'рни, ijrochilik va bastakorlik maktabi xaqida tahliliy ma'lumotlar berib o'tilgan.*

O'zbekiston xalq hofizi, zabardast bastakor, Eson Lutfullaev mumtoz musiqa ijrochiligida o'ziga xos ijrochilik maktabini yaratishga erishgan musiqa merosimiz xazinasini 100 dan ortiq mumtoz uslubdagi ashulalar bilan boyitgan asrimizning ustoz san'atkoridir.

Malumki, o'zbek mumtoz musiqa san'ati o'tmish xonanda-yu sozanda va bastakorlarning ijodiy mahsuli. XX asrda ana shunday sharafli ijodiyotni bir qator ustoz san'atkorlar davom ettirganlar. Jumladan, K.Jabborov, J.Sultonov, F.Sodiqov, T.Jalilov, N.Hasanov, I.Ikromov, G'.Toshmatov, M.Murtazoev, Yu.Rajabiy, F.Mamadaliyev, M.Muhamedov, O.Hotamov va Eson Lutfullaev kabi davrimiz san'atkorlarining nomlarini sharaf bilan xalqimiz dilidan va musiqa merosimiz tarkibidan munosib joy olishga erishgan davrimizning ustoz bastakorlaridirlar. Ularning bizga qoldirgan musiqiy merosi biz uchun har tomonlama qadri va kelajak avlod uchun namunadir. Uzoq o'tmishdan milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, ruhiyatimiz asosida shakllangan ma'naviyatimizni munosib zamonaviy davomchilari desak adashmagan bo'lamiz.

Eson Lutfullaev 1935 yil 25 noyabrda Samarqand viloyati (hozirgi Jizzax viloyati)ning Forish tumani, Greh Kusho qishlog'ida san'atkor oilasida tug'ilgan. Otasi Abilov Lutfillo san'atkor, onasi Abilova Fotima uy bekasi bo'lgan. 1952 yilda o'rta maktabni tugatib, armiya xizmatiga ketgan. 1955 yilda armiya safidan qaytgach, Samarqand shahridagi "Zooveterinariya" texnikumida tahsil olgan.

Eson Lutfullaev 1956-1957 yillarda Hamid Olimjon nomidagi Samarqand drama teatrida ishlagan. 1957 yilda Toshkent shahriga kelib, "Estrada teatri" solisti sifatida ishga joylashgan. 1957-1960 yillarda O'zbek davlat filarmoniyasida ishlagan. 1960 yilda Yu.Rajabiy nomidagi "Maqomchilar dastasi"ga ishga qabul qilingan. 1960 yildan to 2000 yilga qadar "Maqom" ansamblida faoliyat olib borgan.

Eson Lutfullaev yoshligidan qo'shiqchilikka xavas qo'ygan. Bu xavas uni katta san'atga - maqomchilikka yetaklagan. Eson Lutfullaevning san'atga baxshida hayoti unga hurmat keltirdi, xalq ardog'iga musharraf etdi. Uning otasi Abilov Lutfulla xalq orasida mashhur hofiz bo'lgan. Akalari Zikrillo va Amrillolar ham ashula aytishgan. Eson Lutfullaev o'z otasidan eshitgan kuy va qo'shiqlarining yangi talqinini ustoz Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovlardan eshitdi. Bu ustozlar uni san'at dargohiga chorladi.

Eson Lutfullaev qo‘shiqchilik san‘atiga maxsus o‘qimagan. Ammo u yoqimli, diapazoni keng va kuchli ovoz sohibi bo‘lganligi, tinimsiz mehnati sababli el nazariga tushgan. U ustozlari Jo‘raxon Sultonov va Ma‘murjon Uzoqov an‘analarini davom ettirgan. Biroq u o‘ziga xos ovoz sifati, o‘z nola qochirimi va o‘z uslubiga ham ega hofiz edi.

Eson Lutfullaev 1998 yili adabiyotshunos olim professor S.Erkinov bilan bo‘lgan suhbatida san‘at olamiga kirib kelishi, ustozlari haqida quyidagilarni aytgan edi: “...Men asli yoshligimdan davralarda, maktab havaskorlik to‘garaklarida qo‘shiq aytib yurardim. Qo‘shiqchilik bizning butun oilamizga bobolarimizda qolgan meros. Shu tufayli bo‘lsa kerak, qo‘shiqchilik san‘atiga juda ishqiboz bo‘lganman. Samarqandda o‘qib yurgan kezarimda Ma‘murjon aka Uzoqov, Mukarrama Turg‘unboeva, Muhammadjon Mirzaev, Gavhar Rahimovalardan iborat bir guruh atoqli san‘atkorlar Samarqandga gastrolga borib qolishdi. Shu vaqtda men ham o‘qib, ham Samarqand teatriga qatnashib yurardim. Teatr direktori Sharifjon Akramov Ma‘murjon akaga hazillashib, “Bizda ham bitta yosh ashulachimiz bor, bir eshitib ko‘ring, - dedilar. Shunda meni chaqirishdi va Muhammadjon Mirzaev qo‘liga rubobini olib, Ma‘murjon akaning qo‘shiqlaridan birini aytib berishimni iltimos qildi. Men qo‘shiq kuyladim. Ma‘murjon aka xayol surdi, so‘ng menga bir qaradi-da, kulimsirab, “Qaerda o‘qiysan?” deb so‘radilar. Men “Zooveterenariya” texnikumida o‘qiyman, dedim. “Sen aslida san‘atkor bo‘lishing kerak ekan, Toshkentga borishing kerak, xohlasang, seni Toshkentga olib ketaman”, dedilar. Men rozi bo‘ldim. Toshkentga kelgach, u kishi meni katta ko‘rikda sinovdan o‘tkazdi va o‘z brigadasiga qabul qildi. Hozirgi “Navoiy” muzeyida estrada teatri bo‘lardi. Shu yerda M.Uzoqov brigadasida ish boshladim. Keyinchalik boshqa guruhlarda ham ishladim. 1960 yili marhum akademik Yu.Rajabiy “Maqom” guruhini ochdilar, bu ansamblni eshitgach, “Maqom” meni o‘ziga torta boshladi. 1960 yili Yunus akaga uchrashib, maqomga juda ishqibozligimni aytdim. U kishi meni eshitib ko‘rgach, “Sen juda bizga keraklisan” deb, meni “Maqom” ansambliga ishga qabul qildi. Mana necha yillardan beri, 30 yildan oshiq “Maqom” ansamblida ozmi-ko‘pmi o‘z hissamni qo‘shib, merosimizni xalqimizga yetkazdim. Mening san‘atkor bo‘lishimga ustozim Ma‘murjon aka sababchi bo‘ldilar. Toshkenga kelganimdan keyin 4 yil Jo‘raxon aka rahnamoligida faoliyat ko‘rsatdim. U odam meni xalqqa tanitdi, odamlar orasida qanday yurish kerakligini, ro‘zg‘or tutishni, farzandlarni tarbiya qilishni o‘rgatdi. Men bu ustozlarimdan nihoyatda xursandman, shunday ustozlarimi borligidan baxtiyorman”.

Eson Lutfullaev repertuaridan maqom va mumtoz ashula yo‘llari (“Navruzi sabo”, “Feruz I”, “Feruz II”, “Mo‘g‘ulchai navo”, “Chapandozi bayot”, “Chorgoh I”, “Buxoro irog‘i”, “Suvora” va boshqalar) hamda katta ashulalar (“Sog‘indim”, “Ohkim” va boshqalar), 100 ga yaqin kuyini o‘zi bastalagan ashulalar (“Ko‘ziga surma qildi”, “Yuragi toza bo‘lsin”, “Zor etma”, “Dastingdan”, “Noz uyqusi”, “Afsona deb” va boshqalar) o‘rin oldi. U qo‘shiqchilik faoliyati davomida 500 ga yaqin ashula ijro etgan.

Uning tasmaga tushirgan ilk qo'shig'i "Ko'zim shahloga tushdi" edi. Bu qo'shiqdan so'ng "Yo siz keling, yo men boray" qo'shig'ini yozdirgan.

Eson Lutfullaev 1984 yilda "Mehnat fahriysi", 1975 yilda "Teatr ijodkorlari uyushmasi" a'zosi bo'lgan. U 1980 yili "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan artist", 1997 yili "O'zbekiston xalq hofizi" unvoniga sazovor bo'lgan.

Eson Lutfullaev O'zR televidenie va radioeshittirish davlat qo'mitasi tomonidan ham bir qancha faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. 1970 yilda "Erishgan katta muvaffaqiyatlari uchun" faxriy yorlig'i bilan, 1989 yilda "Yuksak ijodiy va ijrochilik mahorati, O'zbekiston aholisi o'rtasida musiqa san'atini targ'ib qilishdagi faoliyati uchun" faxriy yorlig'i bilan, 1999 yili "Ko'p yillik mehnati, yoshlarga bilim va tarbiya berish, kasb mahoratini o'rgatish, ularni qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdagi xizmatlari uchun" faxriy yorlig'i, 1997 yilda "Ko'p yillik va samarali mehnati uchun hamda O'zRning mustaqillik kuni bilan" faxriy yorlig'i bilan taqdirlangan.

Joriy yilning boshlarida O'zbekiston xalq hofizi Eson Lutfullaevning xonadoniga tashrif buyurgan O'zbek Milliy maqom san'ati markazi muzey xodimlari hofizning turmush o'rtog'i bilan bo'lib o'tgan suhbat davomida Anbar Aya ko'zlarida yosh bilan, bir-biriga suyanib umrguzaronlik qilgan xotiralarini hamda ijod yo'llarini, ustoz va shogirdlariga bo'lgan mehr muhabbatlarini so'zlab berdilar. Ustozning farzandlari va turmush o'rtog'i tomonidan O'zbek milliy maqom sanati markazi muzeyga hofizdan esdalik bo'lib qolgan noyob eksponatlarni xadya etdilar.

Ustoz san'atkor Eson Lutfullaev ham atoqli xofiz va bastakorlarning an'alarini munosib davom ettirib kelgan ijodkordir. Xalqimizga ko'plab mumtoz yo'lidagi asarlar yaratib taqdim etgan, ijrochilik amaliyotida esa ustozlar an'anasidan kelib chiqib muayyan ijro uslubiga ega bo'lishga erishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O. Matyoqubov. «Maqomat». Toshkent, 2004.
2. B.Do'stmurodov, Sh.Matyoqubov. Xalq hofizlari. Toshkent "Ilm ziyo" 2011.
3. O'zbekiston milliy yensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.